

SHAXSNING IJTIMOIYLASHUVIDA TA'LIM TARBIYA VA IJTIMOIY PEDAGOGIKANING O'RNI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich 101-guruh talabasi*

Akmaliddinova To'linoy Akmaliddin qizi

Tel raqam: +998979117881

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs ijtimoiylashuvi hamda tarbiya ta'lim va xulq atvori tahlil qilinadi. Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatda qanday o'rnini tutganini ifodalaydi, uning axloqiy va ma'naviy tomondan qadriyatlarini anglashga yordam beradi. Ijtimoiy tarbiya ham ta'lim ham insonni yuksalishga qolaversa turli ijtimoiy ko'nikma va malakalarni egallashga yordam beradi. Ijtimoiy xulq esa shaxsni jamiyat bilan bo'ladigan aloqa va faoliyatni shakllantiradi. Bularning hammasi shaxsning erkin xolatda jamiyat bilan uyg'un ishlashga undaydi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiylashuv, ijtimoiy pedagogika, shaxs, ijtimoiy xulq atvor, ijtimoiy ta'lim tarbiya, ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy katagoriyalar.

Kirish: Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilab beruvchi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiylashuv shaxsni jamiyatning axloqiy madaniy va ta'lim tarbiyaviy qadriyatlari bilan tanishib o'zining huquq va majburiyatlarini anglab yetadi. Bu jarayonlarning hammasi shaxsning jamiyat hamda insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarini shakllantiradi, shaxsning ijtimoiy bilim ko'nikma hamda xulq atvorini belgilaydi.

Asosiy qism: Ijtimoiylashuv bu shaxsning jamiyatga moslashish jarayoni. Bu jarayon shaxsda bolalikdan boshlanadi va umri bo'yi davom etadi.

Biz ijtimoiylashuvning bosqichlari haqida aytadigan bo'lsak birinchi bosqichida bola oiladan do'stlaridan va jamiyatdan yani ta'lim tizimidan o'rganadi. Bolaning ijtimoiylashuvi oilasidagi insonlar yoshi kattalar va tengdoshlari bilan bo'ladigan aloqalar orqali paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqich esa bola jamiyatga qo'shilish jarayonidan ya'ni maktabda ta'lim olish, o'qituvchilar va tengdoshlari bilan bo'ladigan aloqalari shaxsning ijtimoiylashuvining yana bir muhim bosqichi shakllanadi. Bu davrda esa shaxs o'zining ijtimoiy movqeyini shakllantiradi. Uchinchi bosqichda shaxsning ijtimoiylashuvi davom etadi, ammo u endi o'ziga xos qarorlar emas balki o'z xulq-atvorini o'z ichigi oladi. Birinchi shaxs ijtimoiy makon bo'lmish oilada o'z ijtimoiyligini shakllantiradi. Maktabga kelib turli ijtimoiy xolatlar normalar va ta'lim tarbiyani o'rganadi. Do'stlar va tengdoshlari o'rtasida ijtimoiylashuv yanada chuqurlashadi, bu davrda shaxs ijtimoiy aloqalarni shakllantirib shaxsiy qiziqishlariga asosan qarorlar qabul qiladi.

Ijtimoiy xulq atvor shaxsning guruhlar va tengdoshlari o'rtasidagi norma va qoidalarga amal qilishdir. Ijtimoiylashuv va ijtimoiy xulq atvor o'rtasidagi bog'lanishlar. Ijtimoiylashuv va ijtimoiy xulq atvor o'rtasida mustahkam bog'lanishlar mavjud. Shaxs ijtimoiylashuvi davomida o'rganiladigan me'yorlar qoidalar ijtimoiy xulq atvor shakllantirishda yordam beradi. Ijtimoiy pedagogika garchi u avvaldan yurtimizda pedagogik bilim sohasi va fan sifatida mavjud bo'lgan bo'lsa ham, O'zbekiston uchun yangi hodisa va tushunchadir. Uning mustaqil fanga aylanganligi va amaliy tajribalari tizimlashtirilmaganligining sabablari O'zbekiston tarixiy rivojlanishining murakkabliklari va qarama - qarshiliklari bilan izohlanadi. Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaga qiziqish jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari va davlatning ijtimoiy buyurtmasi asosida paydo bo'ldi.

Hozirda respublika siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va ma'rifiy - madaniy islohotlarni boshdan kechirmoqda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishning yangi tamoyillari, bozor iqtisodiyoti munosabati

qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketishi, g'ayri ijtimoiy hodisalar - alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, fohishalik kabi ijtimoiy muammolarni eskinlashuviga sabab bo'lmoqda. Bu holatda birinchi navbatda bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muxtojdir. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolariga bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo'ladi. Ijtimoiy pedagogikaning zarurligini quyidagi holatlar talab etayotgan edi. Birinchidan, bugungi kunda ta'lim va tarbiya maqsadi bilan uning ba'zi natijalari o'rtasidagi qarama - qarshilik sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash zarurligi talab etilyapdi.

Ijtimoiy pedagogika - tarbiya va ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalarni o'rgatadi. Bu jarayon jamiyatga kirish va o'zaro munosabatda bo'lishni anglatadi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma oladilar, ya'ni ijtimoiylashtirish yuz beradi. Ijtimoiy pedagogika kursi talabalarning umumpedagogik bilim darajasini kengaytirish bilan birga, ularni jamiyatdagi turli munosabatlarni, ma'naviy faktorlarni tekshirish shuningdek, mazkur fanning obyekti, predmeti, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, kategoriyalari ijtimoiy pedagog kasbining spetsifik xususiyatlari kabi muammolar ustida bosh qotirishga Umumiy o'rta maktablarda ya'ni boshqada bir o'quv yurtlarida bola ta'lim jarayonlarida akademik bilimlariga va ularni egallash uchun eng zarur bo'lgan ko'nikmani egallash va ko'llashni o'rgatadi. Shuningdek ular alohida tizimlashtirilgan ijtimoiy bilim ko'nikma va tajribalarni ham egallaydi. Ular bola tomonidan o'rganilgan malaka va ijtimoiy talablarini yutuqlarini egallashni ta'minlaydi.

Qachon bolaga va uning ijtimoiylashuvida maxsus yordam zarur bo'lgandagina bu bilim ko'nikma va malakalar as qotadi. Maqsadga qaratilgan

ijtimoiy bilim berish ko'nikma va malakalarning yigindisi ijtimoiy ta'lim deyiladi. Ijtimoiy ta'lim termini ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishchanglik institutlarining ochilishi bilan paydo bo'ldi, lekin hozirgi kunda bu tushunchalarning ma'nosi to'la ochilmadi. Ijtimoiy tarbiya - bu ijtimoiy pedagogikada "tarbiya" kategoriyasiga kiruvchi shakli bo'lib pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarda o'rganiladi. Inson shaxsining sifati uning xatti - harakatlarida ko'rinadi, shuning natijasida insonning xulq - atvori shakllanadi, agar qandayda bir sabab bilan ijtimoiy bilim shakllanmagan bo'lsa, demak munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuv sifati ham shakllanmaydi. Shu sababli ijtimoiy pedagogika faoliyat jarayonida shunday zaruriy sifatlar bolalarda shakllantirish talab qilinadi, bu ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifasidir. Demak ijtimoiy tarbiya deganda bir maqsadga qaratilgan bolalar shaxsiyatidagi ijtimoiy zaruriy sifatlar va uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini shakllantirish tushiniladi.

Xulosa: Shaxsning ijtimoiylashuvida, ta'lim tarbiya va xulq atvor shakllanishida ijtimoiy pedagogikaning o'rni. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida ijtimoiy pedagogika hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim va tarbiya orqali insonni jamiyat qadriyatlarini, me'yorlari hamda madaniyatini o'zlashtirishga yo'naltiradi. Ijtimoiy pedagogika shaxsning xulq-atvorini shakllantirish, ijtimoiy tajribaga moslashishini ta'minlash va uni ijtimoiy faol, mas'uliyatli fuqaroga aylantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu boisdan u shaxs va jamiyat o'rtasida mustahkam ko'priklarni bajaradi. Men insonni buyuk shaxs bo'lib yetishganligini, jamiyatda o'z o'rnini topib ijtimoiy shakllanganligini uning o'zini tutishidan ko'ra olaman. Ijtimoiylashgan shaxs har tomonlama shakllangan o'z fikriga ega ongi rivoj topgan ta'lim tarbiyasi yetarlicha bo'lgan nima yaxshi nima yomon ekanligini hamma narsani me'yorini biladigan insonni ijtimoiylashuvi oliy darajali deb ayta olaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" O'RQ 637-son 2020-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasi 1059-son qarori 2019-yil.
3. A.Ahmedov "Ijtimoiy pedagogika" o'quv qo'llanma. Buxoro.- "Kamolot" nashriyoti. 2023-yil 244-bet.
4. M.G'.Bozorova. A. R. To'raqulov "Ijtimoiy pedagogika" o'quv qo'llanma. Termiz.- "Publishing Central" nashriyoti 2025-yil 140-bet.
5. N.Egamberdiyeva "Ijtimoiy pedagogika" darslik.- Toshkent. 2009-yil.